



Hindistonga islom madaniyatining kirib kelishi

Mannobova Munisa O'ktamjon qizi

4-kurs Falsafa (Sharq falsafasi va
madaniyati) yo'nalishi talabasi

Ikramova Iroda Rixsivayevna

Ilmiy rahbar, PhD, sharq falsafasi va
germenevtika kafedrası dotsenti v.b

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada jahon dinlaridan biri sanalgan islom dini va uning Hindistonga kirib kelishi, Hindiston bo'ylab islom dini va madaniyatining yoyilishi kabi asosiy masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Hindiston, islom dini, kastalar(varnalar), hinduizm, buddizm, Dehli sultonligi, Cheraman Perumal, Bxakti, so'fiylar, “Dor-ul hikma”, ”Sind Hind”, ”Litvari” va “Bij Gamita” asarlari, Malik ibn Dinar, Jorj Soliba.

KIRISH

Islom dini Hind diyorida qay tarzda va nima sababdan shiddat bilan tarqaldi? Buning asosiy omillari qanday aks etadi? Bilamizki, Hindiston yarimorolida yashovchi hind xalqlari orasida turli xil dinlar, madaniyatlarning ko'rinishlari mavjuddir. Shunday muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan biri bu islom dinining Hindiston hududiga kirib kelishidir. Bu haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Masalan, fath etilgan hududlarda



islom dini tarqatilgan, yoki savdogarlar orqali kirib kelingan. Tarixan ham nazar tashlasak, ushbu fikrlar o'z tasdig'ini topadi. Ya'ni, qaysidir madaniyatning, dinning tarqalishi uchun muhim bo'lgan sabablardan yana biri bu muhit talab etiladi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Islom dinining Hindistonga kirib kelgunicha bo'lgan davrda ushbu hududda hinduizm va buddizm tamoyillariga asoslangan jamiyat mavjud edi. Kattagina qismni esa hinduizmga xos jamiyat tuzilishi va madaniy holati egallagan. Shuningdek, turli xil hududiy bo'linishlar, ularning alohida ichki tuzilmasi, madaniyatning xilma xilligi va diniy pluralizmning yaqqol namunalari ham aholi orasida tarqoqlikni yuzaga keltirgan. Bu esa kasta(varna)larning ahamiyatini yanada oshirib yuborgan. Barcha kasta vakillari hinduizm va buddizm kabi dinlarni qabul qila olmagan. Bu islom dinining keng tarqalishida qulay imkoniyatni hosil qiladi. Yuqorida aytilganidek, savdogarlar orqali kirib kelishi VII asrdayoq boshlangan. Aynan shu davrda hind xalqlari kasta tizimi asosida hayot kechirayotganligi va kastasi sababli biror din vakili hisoblanmaganligi ulardagi islomga bo'lgan qiziqishni orttirgan. Savdogarlar turli xil joylarga safarlar qilganlar va shuning natijasida islom dini tarqalib borgan. Hattoki, Keralaning qirg'oqbo'yi hududlarida yashovchi ko'plab xalqlar yangi din tamoyillarini va islomni qabul qildilar. „Hindistondagi birinchi masjid – “Chereman” masjidi 629 yilda, ya'ni Payg'ambarimiz alayhissalom hali hayotlik paytlaridayoq Keralada barpo etilgan. Uni Hindistonning ilk musulmon kishisi Cheraman Perumal Bxaskala Ravi Varma qurdirgan“¹. Ushbu fikrlar haqida turli xil rivoyatlar ham yaratilgan. Unga ko'ra aytiladiki, Malik ibn Dinar ismli savdogar va uning 12 hamrohlari Hindiston hududiga savdo ishlari bilan tashrif buyuradilar. Ularning savdolari hind xalqlari orasida mashhur bo'ladilar va u Kerala hukmdorining qiziqishi sabab bo'ladi. Ana shu davrda hamron Cheraman Perumal Bxaskala Ravi Varma hisoblangan. U savdogarlardan bunchalik yuksaklik sababini so'raganlarida bu islom dinining ta'siri ekanligini aytadilar. Shundan so'ng hukmdor islom

¹ <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/hindistonda-islom-qanday-tarqalgan-edi>



diniga oshonch hosil qiladi va islom dinini qabul qiladi. Ushbu rivoyat yoki haqiqatlar haqida tarixchi Hamidulla o'zining „Muhammad Rasululloh“ nomli asarida keltiradiki, „Malabarda, janubi-g'arbiy sohilda juda qadimiy an'ana bor. Hindiston, o'z shohlaridan biri bo'lgan Chakravati Farmas (ehtimol Cheraman Perumalning boshqa nomi) Makkada oxirgi Payg'ambarning mashhur mo'jizasi bo'lgan oyning bo'linishini kuzatgan va bu Payg'ambar kelishining ramzi ekanligini surishtiruv paytida bilib olgan. Arabistonlik Xudoning o'g'lini regent qilib tayinladi va u bilan uchrashish uchun yo'lga chiqdi. Uning qalbida Payg'ambarga bo'lgan muhabbat ortib bordi va u hozirgi Hindistonning eng birinchi musulmoniga aylandi”². Mana shu kabi hududlarda yashovchi xalqlarga maqul bo'lgan diniy tamoyillardan asosiysi bu diniy bag'rikenglik bo'lganligi, savdoning ulkan tasiri asosiy ahamiyat kasb etadi. Qaysi tabaqa vakili bo'lishidan qat'iy nazar islom dini erkinlikni taqdim etdi. Hattoki, muqaddas masjidlar ham barpo etilgan.

Islom Hindistonga X asrda turkiy qabilalardan bo'lgan G'aznaviylarning hozirgi Panjobni qo'shib olganida kirib kelgan. Musulmon sarkardalari Shimoliy Hindistonning katta qismini bosib oldilar va poytaxti Dehli bo'lgan Dehli sultonligiga asos soldilar. Islomning kirib kelishidagi yana bir jihat bu Dehli sultonligining o'rnatilishi hisoblangan. Dehli sultonligi islomning rasman Hindistonda tarqalishini belgilab berdi. Hindistonda Dehli saltanatining vujudga kelishi bilan bu o'lkaga islom dini, madaniyati va ma'rifati ham kirib keldi. Hind aholisining bir qismi majburan, boshqalari ma'lum bir imtiyozlar evaziga islom dinini qabul qilishdi. Ma'lum bir qismi esa jizya solig'idan ozod bo'lish umidida, quyi kastalarga mansub bo'lganlar esa o'zining holatidan kelib chiqib bu dinga e'tiqod qila boshladilar. Saroylarda faoliyat yurituvchi lavozim vakillari, Dehli qo'shinlarining ko'plab harbiy boshliqlari va askarlari, noiblar, shaharlardagi amaldorlar, shoir va olimlar orasida ham aksariyat musulmonlar tashkil eta boshlagan. Musulmonlarning yaqinlari ham Hindistonga ko'chib kela boshladilar va buning natijasida musulmon qatlamining ko'payishi yuzaga keldi. Dastlabki eng ko'p musulmonlar

² . https://uzpedia.uz/pedia/hindistonga_islom_madaniyatining_kirib_kelishi



yashovchi hudud Bengaliya sanalgan. Shunday bo'lsada, hinduizm va islom dini birgalikda keng tarqalgan edi. Islom dini avvaldan yashab kelgan musulmon xalqi uchun ham katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, musulmonlar hindlarning bayramlarida qatnasha oldilar, urf-odatlarining, madaniyatining va falsafiy tafakkurining ma'lum qismlarini qabul qildilar. Hind xalqlari uchun ham islom falsafasi, birodarlik, bag'rikenglik kabi tamoyillari ta'sir etdi. Shunday muhim sanalgan ikki madaniyatning yaqinlashuvida va islomning yana bir jihatdan tarqalishida „Bxakti“ harakati ham e'tiborlidir. Ushbu harakat aslida hinduizmga asoslangan bo'lsada, uning vakillari xalqning turmush holatini hisobga olib hinduizmi mustahkamlash maqsadida kasta tizimi qoraladilar. Bu ko'rinib turganidek islomdagi tenglik, birodarlik tamoyillariga xosdir va bu aholining orasida islom dini haqida ishonchni ifodalagan. Tasavvuf esa din bilan bog'liq ekan albatta u ham chetda qolmaydi. Hindistonda islom dinining tarqalishida so'fiylar (islom tasavvufchilari) muhim rol o'ynagan. Ular islomni yoyishda juda manfaatli bo'ldilar, chunki so'fiylik e'tiqod tizimlari va amaliyotlarining ko'p jihatlari hind falsafiy adabiyotida, bir qancha o'xshashliklarga ega edi. Bu esa hindlarning islom diniga e'tiqod qilishlarini osonlashtirdi.

Ma'lumki, madaniyat ilm-fan bilan ham bog'liq. Bu esa manbalar orqali madaniyatni ifodalab beradi. Islom dini Hindistonga kirib kelgandan so'ng qo'l yozma va tarixiy manbalarni o'rganish ham boshlandi. Islom madaniyati kirib kelgan Hindistonda qadimiy ilmiy kitoblarni tarjima qilish avj oldi. Ko'pgina sanskrit kitoblari VIII asrdayoq arab tiliga tarjima qilingan. Jorj Soliba o'zining “Islom ilmi va Yevropa Uyg'onish davri” kitobida yozadi: “Ba'zi yirik sanskrit matnlari ikkinchi abbosiy xalifasi al-Mansur [754–775] davrida, agar ilgari bo'lmasa ham, tarjima qilina boshlagan; ba'zi matnlar undan oldin ham mantiq bo'yicha va umuman olganda, fors va sanskrit matnlari oz bo'lsada, birinchi bo'lib tarjima qilinganligi e'tirof etilgan”³. Bag'doddagi “Dor-ul hikma”da Siddxantaning falakiyot ilmiga bag'ishlangan “Sind hind” asari, Brahmaguptaning matematika sohasidagi kitoblari va Bxaskaraning “Litvari” va “Bij Gamita” asarlari

³. George Saliba. „Islamic Science and the Making of the European Renaissance “. London, England –2007.P85



o'rganildi. Hindistonda ilm-fanning qanday rivojlanganligini sanskrit, arab, fors tillarida yozilgan o'n mingdan ziyod qo'lyozmalari asoslab beradi. Bu noyob qo'lyozmalar fanning turli sohalariga oid va ularning ichida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilingan asarlar ham ko'p uchraydi. Shunday ekan islom madaniyatlar va dinlar o'rtasidagi munosabatlarga yangi shakl va mazmun olib kirdi. Bu esa o'z navbatida Hindistonda yashovchi xalqlarning turmush tarziga, an'alariga va so'zlashuviga ta'sir qildi. Islom ruhi insonparvarlik tamoyillari va rahm-shafqatni, islom axloq-odobini hayotga tatbiq qildi. Musulmonlar adolat, kechirimlilik, sodiqlik, sabr-toqat kabi g'oyalarni saqlab keldilar. O'rta asrlarda musulmonlar orasidagi asosan o'sha davrdagi Hindistonda mavjud bo'lgan falsafa, madaniyatga oid ilmiy an'analarni o'rganib tushunib olishga intildilar. XIV asrda Hindiston islomni o'rganishning asosiy markazlaridan biriga aylandi.

XULOSA.

Islom dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biri. Eron, Pokiston, Hindiston, Marokash, Afrikaning ko'plab mamlakatlari va boshqa dunyoning bir qancha mamlakatlari aholisining ma'lum bir qismlari islom diniga e'tiqod qiladilar. Islom dini tarqalgan joylarda aholining turmush tarziga ham sezilarli darajada ta'sir etgan. Islom dini tarqalishi boshqa dinlar uchun va madaniyatlarning almashinuvi, yangilanishi uchun asos desak ham bo'ladi.

Islom xalifaligining muvaffaqiyati va tarqalishining beshta sababi:

1. Islom dinining universalligi.
2. Fath va islomiy jihod.
3. Turli madaniyat va dinlarga nisbatan bag'rikenglik.
4. Ilgari mavjud bilim va resurslarni singdirish.
5. Shariat huquqiy tizimi va Islomning adolatga sodiqligi

Aynan shu kabi muhim jihatlar Hindiston hududida yashovchilar uchun ham maqul bo'lgan. Ko'plab kasta vakillari o'zlarining huquqlaridan kelib chiqib din qabul qila



oldilar, ular uchun tenglik huquqi vujudga keldi. Hindiston islom madaniyati ta'sirida ilm sohasidagi yetuk hudud sifatida tanildi. Xalqning dunyoqarashida erkinlik, tenglik, birodarlik kabi tushunchalarni shakllantirdi. Tarixiy -falsafiy manbalarning ko'plari o'rganildi va madaniyatlarning rivojlanishi uchun asos bo'ldi. Bu haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'rganish va uning ustida ilmiy faoliyat yuritish hattoki G'arb olimlari uchun ham qiziqarli bo'lgan. Bu ham hind xalqi uchun, ham islom dunyosi vakillari uchun yangi bir madaniy holatni yuzaga keltirishga, yoki mavjud madaniyatni yanada shakllantirishga olib keldi. „Yer yuzida Islomga e'tiqod qiluvchilar, ya'ni musulmonlar qariyb 1,5 milliardga yetadi va ular soni jihatidan xristianlardan so'ng ikkinchi o'rinda turadi“⁴. Shu kabi ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, hozirgi davrga kelib ham Hindiston aholisining kattagina qismi musulmonlardir. Ularning madaniyatlari ham avvaldan islom madaniyati va tamoyillari asosida shakllanib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/hindistonda-islom-qanday-tarqalgan-edi>
2. https://uzpedia.uz/pedia/hindistonga_islom_madaniyatining_kirib_kelishi
3. Ochildiyev a. „Dinshunoslik asoslari“ o'quv qo'llanma. Toshkent –2013.
4. George Saliba. „Islamic Science and the Making of the European Renaissance “. London, England –2007

⁴ <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/hindistonda-islom-qanday-tarqalgan-edi>